


# ILM – FAN TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



## BIOLOGIYA DARSLARIDA ILG’OR TA’LIM METODLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

**Jurayeva Surayyo Qo’yliboy qizi**

*Toshkent viloyati Piskent tumani*

*11-umumiy o’rta ta’lim maktabi biologiya fani o’qituvchisi*


[surayyojurayeva0226@gmail.com](mailto:surayyojurayeva0226@gmail.com) Tel: +998 99 828 32 18

**Annotatsiya:** Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy o’zgarishlar biologik ta’lim jarayonida ilmiylik, ta’lim va tarbiyaning uzviyligi sistemalilik, fundamentallik, izchillik, ko’rgazmalilik, onglilik, mustaqillik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning metodologik prinsipi, nazariyani amaliyot bilan bog’lash, samaradorlik, tushunarllilik, individual va guruhli yondashishni uyg’unlashtirish, zarurligini ko’rsatdi.

**Kalit so’zlar:** suhbat metodi, hikoya metodi, ma’ruza metodi, ko’rgazmali metodlar

Ta’lim mazmunining tarkibiy qismlari va ularni o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishi o’qitish vositalarini to‘g’ri tanlash va o‘z o‘rnida samarali foydalananishni talab etadi. Biologiya darslarida o’rganilayotgan mavzuning

# ILM – FAN TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



mazmunidan kelib chiqqan holda ularni yoritish imkonini beradigan tabiiy, tasviriy ko’rgazmalar, ekran vositalari, o’quv jihozlari, multimedialar, elektron versiyalar va qo’llanmalardan foydalanish tavsiya etiladi. Darsning mazmuni va foydalaniladigan ko’rgazmali vositalar muayyan o’qitish metodlarini talab etadi. O’qituvchi o’qitish metodlarining turlarini, ularga mansub uslublarni, foydalanish yo’llarini yaxshi bilishi lozim. Shuni hisobga olgan holda quyida o’qitish metodlarining guruhlari haqida fikr yuritiladi. Og‘zaki bayon metodlari guruhi o‘z ichiga suhbat, hikoya, ma’ruza metodlarini oladi. Quyida shu metodlarning tarkibiga kiruvchi metodik uslublar keltiriladi:


**Suhbat metodi** suhbat savollarini ketma-ketlikda qo‘yish, yordamchi va qo‘srimcha savollarni o‘z vaqtida berish, o‘quvchilarni faollashtirish, o‘quvchilar javobidagi xatolarni to‘g‘rilash, xulosa va umumlashtirishni tarkib toptirish uslubi.

**Hikoya metodi** o‘quv materialini jonli, obyektlarga xos xususiyatlarni bayon qilish, axborotning ilmiyligi, izchilligi, tushunarligi, nutqning ravonligi va ifodaliligi uslubi.

**Ma’ruza metodi** o‘quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish, muammolarni qo‘yish, obyektlarni aniqlash, taqqoslash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish uslubi.

**Ko‘rgazmali metodlar** guruhiga tabiiy va tirik obyektlar, tasviriy ko‘rgazma, ekran vositalari, AKTning ko‘rgazmali dasturlari, multimedialarni namoyish qilish metodlari kirib, muayyan holda quyidagi ko‘rgazmali vositalarni namoyish qilish, illyustratsiya, demonstratsiya, o‘quv kinofilmlari, videofilmlar, AKTning ta’limiy, modellashtirilgan dasturlari, elektron darsliklar, multimedialarni namoyish qilish,

# ILM – FAN TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



ko‘rgazmaning did va estetik talablarga javob berishi, dars mazmunini yoritishi, ketma-ketlikda o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish uslublaridan tashkil topadi.


**Amaliy metodlar** guruhiga kuzatish, tajribani tashkil etish va o‘tkazish, amaliy ishni bajarish metodlari kirib, ular mos holda, obyektlarni tanib olish va aniqlash, kuzatish va tajribalar o‘tkazish, o‘quvchilarga amaliy ishning borishini bayon qilish, amaliy ishlarni bajarish rejasini tuzish, amaliy ish topshiriqlarini bajarilishi ni nazorat qilish, topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil qilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, amaliy ish, kuzatish va tajribalarni yakunlash va rasmiylashtirish uslublaridan iborat bo‘ladi.

**Muammoli izlanish metodlari** muammoli vaziyatlarni yaratish, muammoli savollar zanjirini tuzish, muammoli topshiriqlar tuzish va tajribalar o‘tkazish, muammoli vaziyatlarni hal etish yuzasidan o‘quv farazlarini hosil qilish, o‘quv farazlarini isbotlash, obyektlarni taqqoslash, mantiqiy mulohaza yuritish, o‘quv tadqiqot tajribalarini o‘tkazish, o‘quv xulosalari va umumlashmalarini ta’riflash uslublarini o‘z ichiga oladi.

O‘qitishning mantiqiy metodlari guruhi induktiv, deduktiv, tahlil, bosh g‘oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish metodlaridan iborat bo‘lib:

- induktiv metod — xususiy faktlarni muammoli bayon qilish, o‘quvchilar faoliyatini xususiydan umumiylar chiqarishga yo‘naltirish, muammoli topshiriqlami berish uslubi;
- deduktiv metod — umumiylar chiqarishga yo‘naltirish uslubi;

# ILM – FAN TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR




- d) tahlil metodi — axborotni anglab idrok etish, o‘rganilgan obyektlarning o‘xshashlik va farqli tomonlarni aniqlash, o‘rganilgan obyektlarni tarkibiy qismlarga ajratish, ular o‘rtasidagi boshlanishlarni aniqlash uslubi;
- e) bosh g’oyani ajratish metodi — o‘quv materialidagi asosiy g’oyani ajratish va saralash, axborotni mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, asosiy g’oya va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, tayanch so‘zlar va tushunchalarni ajratish, asosiy fikr haqida xulosa chiqarish uslubi;
- f) qiyoslash metodi — qiyosiy obyektlarni aniqlash, obyektlarning asosiy belgilarini aniqlash, taqqoslash, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, qiyoslash natijalarini shartli belgilar bilan rasmiylashtirish uslubi;
- g) umumlashtirish metodi — o‘quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinamikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiyl xulosa chiqarish uslublarini o‘zida mujassamlashtiradi.

**Mustaqil ish metodlari** guruhiiga ko‘rgazma vositalari va darslik ustida mustaqil ishslash metodlari kiradi. Ular tarkibiga mustaqil ish topshiriqlarini berish, o‘quv faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish, o‘quv mehnati malakalarini tarkib toptirish, namunaga muvofiq mustaqil ishlarni tashkil etish, ijodiy topshiriqlar berish uslublari kiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1.A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipovalar biologiyadan qo’llanma-2020-yil

# ILM – FAN TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



2. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. Учебное пособие.  
— М.: «Народное образование», 1998 г.
3. Т. G’ofurov va boshqalar „Biologiyani o’qitishning umumiyl metodikasi“ O’quv metodik qo’llanma Toshkent 2005 yil
4. Internet”Google” ma’lumotlari